
"Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat" shiori ostida ma'naviy -ma'rifiy tadbir tashkil etildi

Buvayda tumanida jamiyatning ma'naviy yuksalishiga erishish, ma'naviy -ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, xotin-qizlarda vatanga va xalqqa sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirish, oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida "Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat" shiori ostida ma'naviy -ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Unda ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat tizimida fidoiy va obro'-e'tiborga ega bo'lgan faol xotin-qizlari ishtirok etishdi.

Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari-oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Kommuna Mirsaidova, , faxriy ustozlar so'zga chiqib, yurtimizda xotin-qizlarga berilayotgan keng imkoniyatlar, e'tibor haqida fikr bildirdilar.

2024-01-19 18:04:06